

⁴ Финансист (роман). Википедия. URL: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Финансист_\(роман\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Финансист_(роман))

⁵ The concept of "American Dream" in Th. Dreiser's novels. econf.rae.ru.
URL: <https://s.econf.rae.ru/pdf/2016/05/5443.pdf>.

⁶ Финансист (роман). Википедия. URL: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Финансист_\(роман\).\[4\]](https://ru.wikipedia.org/wiki/Финансист_(роман).[4])

понять механизмы художественного осмысления капиталистической реальности и выявить когнитивные основания идейного содержания романа.

Список литературы

1. Грушевская, Е.С. Концепт «Деньги» в художественном произведении (на примере романа Т. Драйзера «Финансист»). CyberLeninka. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontsept-dengi-v-hudozhestvennom-proizvedenii-na-primere-romana-t-drayzera-finansist>.

2. Гусейханова, З.С. Роль концепта «Деньги» в отражении языковой личности автора романа Т. Драйзера «Финансист». CyberLeninka. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-kontsept-a-dengi-v-otrazhenii-yazykovoy-lichnosti-avtora-romana-t-drayzera-finansist>.

3. Нестерова, Т.Г. Реализация профтоэкономических концептов в романе Теодора Драйзера «Financier». CyberLeninka. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/realizatsiya-proftoekonomicheskikh-kontseptov-v-romane-teodora-drayzera-financier>.

4. Финансист (роман). Википедия. URL: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Финансист_\(роман\).\[4\]](https://ru.wikipedia.org/wiki/Финансист_(роман).[4])

5. The concept of "American Dream" in Th. Dreiser's novels. econf.rae.ru.
URL: <https://s.econf.rae.ru/pdf/2016/05/5443.pdf>.

6. Драйзер, Т. Финансист. Оригинальный текст романа (1912).

JA'HON MIQYOSIDA SOTSIAL DETEKTIV ASARLARNI QIYOSLASH (IJTIMOIY RUHDAGI G'ARB VA SHARQ DETEKTIV ASARLAR TAHLILI)

Beknazarova Zarnigor Baxromovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
o'qituvchisi lilubeknazarova23@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu qiyosiy tahliliy maqolada Agata Kristining "Katta To'rtlik" ("The Big Four") detektiv romani hamda Said Ahmadning ijtimoiy-psixologik yo'nalishdagi "Jimjitlik" asarida aks etgan yovuzlik mohiyati va unga qarshi kurash masalalari yoritilgan. Unda G'arb adabiyotidagi detektiv janrining ratsional, intellektual yondashuvi (Puaroning mantiqiy tartibni tiklash uchun kurashi) Sharq nasri qahramonlarining ma'naviy qiyofasi, vijdoniy azob asnosida ruhan poklanishga intilishlari bilan qiyoslanadi. Shuningdek, ikki madaniy kontekstda inson qismati, adolat tushunchasi hamda qahramonlikning falsafiy talqindagi tub farqlari ochib beriladi.

Tayanch tushunchalar: Qiyosiy tahlil, Ratsionalizm, Ma'naviyat, Global fitna, Ijtimoiy fojia, Tartib, Ichki kurash, Vijdoniy azob, Detektiv adabiyoti, Sharq nasri.

COMPARISON OF SOCIAL DETECTIVE WORKS ON A GLOBAL SCALE (ANALYSIS OF WESTERN AND EASTERN DETECTIVE WORKS IN A SOCIAL SPIRIT)

Beknazarova Zarnigor Bakhromovna

Lecturer of the University of Economics and Pedagogy
lilubeknazarova23@gmail.com

Annotation: This comparative analytical article explores the nature of evil and the struggle against it as depicted in Agatha Christie's detective novel "The Big Four" and Said Ahmad's socio-psychological work "Jimjitlik" (Silence). It contrasts the rational, intellectual approach of the detective genre in Western

literature (Poirot's fight to restore logical order) with the spiritual portrait of the heroes in Eastern prose, who seek inner purification through moral and conscientious suffering. Furthermore, it reveals the fundamental differences in the philosophical interpretations of human destiny, the concept of justice, and heroism across these two cultural contexts.

Keywords: Comparative analysis, Rationalism, Spirituality, Global conspiracy, Social tragedy, Order, Inner conflict, Moral reckoning, Detective fiction, Eastern prose.

СРАВНЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ДЕТЕКТИВНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В МИРОВОМ МАСШТАБЕ (АНАЛИЗ ЗАПАДНЫХ И ВОСТОЧНЫХ ДЕТЕКТИВНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В СОЦИАЛЬНОМ ДУХЕ).

Бекназарова Зарнигор Бахромовна

Преподавателя Университета экономики и педагогики

lilubeknazarova23@gmail.com

Аннотация: Эта сравнительно-аналитическая статья исследует природу зла и борьбу с ним, как изображено в детективном романе Агаты Кристи "Большая четверка" и социально-психологическом произведении Саида Ахмада "Тишина." Она противопоставляет рациональный, интеллектуальный подход детективного жанра в западной литературе (борьба Пуаро за восстановление логического порядка) духовному портрету героев восточной прозы, которые ищут внутреннего очищения через нравственные и сознательные страдания. Кроме того, он раскрывает фундаментальные различия в философских интерпретациях человеческой судьбы, концепции справедливости и героизма в этих двух культурных контекстах.

Ключевые слова: Сравнительный анализ, Рационализм, Духовность, Глобальный заговор, Социальная трагедия, Порядок, Внутренний конфликт, Моральный расчет, Детектив, Восточная проза.

Kirish. Jahon adabiy hazinasida turli tillarda yozilgan bo'lsa-da, inson qismati, yovuzlikning bus-butun shafqatsiz mohiyati va adolat uchun kurash singari fundamental mavzularni xuddiki bir xalqning taqdiri, orzu-umidlari, hayot tarzi o'laroq qamrab oluvchi asarlar bisyor. Mashhur ingliz adibasi Agata Kristining 1927-yilda nashr etilgan "Katta To'rtlik" ("The Big Four") hamda zabardast o'zbek yozuvchisi Said Ahmadning o'tgan asr 80-yillarida yaratilgan "Jimjitlik" romanlari ana shunday Ijod namunalaridandir. Bu romanlar, biri G'arbning ratsional detektivi, ikkinchisi Sharqning ijtimoiy-psixologik dramasi bo'lsa-da, yovuzlikning tabiati va qahramonlarning unga qarshi kurash usullarida tubdan farqli yondashuvlarni aks ettiradi. Ushbu keng qiyosiy tahlil Yovuzlikning mohiyati, qahramonlarning ichki va tashqi harakatlari hamda ularning hayot falsafasidagi ziddiyatlarni yoritishga qaratilgan.

Asosiy qism. Agata Kristining "Katta To'rtlik" asarida yovuzlik tashqi, aniq bir guruh – "Katta To'rtlik" deb ataluvchi global terrorchi tashkilot timsolida gavdalanadi. Ular dunyo tartibini buzishni, xalqaro fitnalar yordamida urushlar keltirib chiqarishni maqsad qilgan to'rt nafar daholarga jinoyatchidan iborat. Bu yovuzlikning tabiati o'ta intellektual va siyosilashgandir. Unga qarshi turgan kuch belgiyalik detektiv dahosi Erkyul Puaro va uning sodiq hamrohi, kapitan Gastingsdir. Puaroning kurash usuli sof mantiqiy tartibga asoslanadi. U uchun jinoyat shaxsiy hissiyotlar bilan hal qilinadigan masala emas, balki "kichik kulrang hujayralar" yordamida yechilishi lozim bo'lgan geometrik masaladir.

Puaro o'z dushmani Li Chang Yenning o'limidan xabar topgan chog'dagi muloqoti bu ratsional dunyoqarashni yaqqol ko'rsatadi: "My great opponent", said Poirot gravely. "It was fated that he and I should never meet in the flesh... A great brain, my friend, a great brain" [4. 222.]. U "Ulkan raqibim bilan yuzma-yuz bo'lmasligimiz taqdirda bitilgan ekan... Naqadar buyuk zako, do'stim, buyuk zako" deya o'sha kimsaga allanechuk hurmat bilan qaraydi. Qolaversa, bu hurmat uning intellektual qudratiga qaratilgan bo'lib, gina-kudurat yoki nafratdan xoli. Demakki, izquvar uchun kurash tugadi, chunki mantiqiy

boshqaruvchi markaz yo‘q qilindi. Puaroning bu so‘zlari, uning butun umri — eng katta aql bilan kurashishga bag‘ishlanganini tasdiqlaydi. Nihoyat, u o‘zining g‘alabasini e‘lon qilar ekan: “The great case of my life is over. Anything else will seem tame after this. No, I shall retire” [4. 224.] deydi. Uning nafaqaga chiqqani jismoniy charchoq emas, balki aqliy stimulyatsiyaning eng yuqori nuqtasiga erishganidan dalolat.

Romanning yakuniy sahifalaridagi Azizbek va Yo‘lovchi o‘rtasidagi dialog esa Tolibjon qismatining ma‘naviy yakunini ramziy tarzda ochib beradi. Yo‘lovchi (donishmand kekxa) Azizbekka tog‘larga ko‘p tikilmaslikni, u yerda qashqirlar borligini aytadi: “Nima qilib o‘tiribsan, chirog‘im? Bu tog‘larga ko‘pam tikilaverma, mahliyo bo‘laverma, bu tog‘larda qashqirlar bor...” [1. 276.]. Bu “qashqirlar” romanda ochib tashlangan byurokratik zulm, ig‘vogarlik va xiyonatning ramziy ifodasidir. Azizbekning javobi esa ma‘naviy g‘alabani bildiradi: “Yo‘q, bobojon, tog‘da endi qashqirlar qolmadi. Eng oxirgisini o‘ngir tepasiga osib qo‘yganman”.

Ushbu dialogdagi asosiy xatti-harakat miltiqning jarga uloqtirilishidir: “Unday bo‘lsa nima qilib miltiq ko‘tarib yuribsan? Tashla uni... – Mana! Mana! – deb Azizbek miltiqni jarga uloqtirdi. Jar tubi suv ekan, shaloplagan tovush eshitildi”. Bunday xatti-harakat Said Ahmadning insonparvarlik va insoniylik falsafasini ifodalaydi: adolatga erishish uchun endi jismoniy kuch yoki qurol kerak emas. Ma‘naviy kurashning o‘zi yovuzlikni yengadi.

Kristi asarida inson qismati ulkan mexanizmning kichik vintlari sifatida talqin etilgan. Odamlar global siyosiy fitna qurboniga aylanadi, ularning hayoti o‘ta intellektual jinoyatchilar tomonidan boshqariladi. Puaro bu qismatni o‘zgartiruvchi kuchdir, lekin uning aralashuvi ham mantiqiy, ilmiy darajada amalga oshadi. Uning falsafasi shundan iboratki, tartibni tiklash uchun har qanday hissiyot chetga suriladi. Bu ratsionalistik fatalizmdir.

Said Ahmadning asari esa inson qismatini ma‘naviy yuk va vijdon bilan bog‘langan fojia sifatida ko‘radi. Tolibjonning qismati bir davrning fojiasi bo‘lib, insonni yiqitadigan asosiy kuch tashqi dushman emas, balki ichki isyonni yashirishga majbur qilgan jimjitlikdir. Roman so‘ngida keltirilgan mashhur xalqona ashula parchalari Tolibjonning butun umr yo‘lidagi ma‘naviy qiynoqlarni ifodalaydi: “Daryo to‘lqin, suvlar toshqin, Undan kechib o‘tolmayman. Otim oriq, rangim sariq, Manzilimga yetolmayman”. U so‘zlar shaxsiy fojia va umidsizlikni, uzoq manzildan charchagan ruh holatini aks ettiradi. Bu yondashuv humanistik fatalizmga yaqin bo‘lib, inson qismati jamiyatning adolatsizligi bilan bog‘langanini ko‘rsatadi. Yakuniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Agata Kristi asarida qahramonlik tashqi tartibni tiklashda, Said

Ahmad asarida esa ichki ma‘naviy xotirjamlik va adolatga erishishda namoyon bo‘ladi. Ikkala asar ham o‘ziga xos uslubda inson ruhining yovuzlikka qarshi kurashidagi qudratini va adabiyotning universal mavzularni turli madaniy kontekstlarda ifodalashdagi imkoniyatini ulug‘laydi.

Sovuqqon aql va vijdon o‘rtasidagi ziddiyat ikkala romandagi qahramonlik va fojiej tafsilotlar fonida teran ifodalangan. Agata Kristining G‘arb detektiv adabiyotining mumtoz namunasi sanalgan “Katta To‘rtlik” (“The Big Four”) va Said Ahmadning sharqona ijtimoiy-psixologik nasr namunasi bo‘lgan “Jimjitlik” romanlari o‘zaro qiyosiy tahlil uchun noyob maydon yaratadi. Bu asarlar nafaqat badiiy uslub va janr jihatidan, balki yovuzlikning mohiyati, qahramonlikning talqini va insonning fojia oldidagi o‘rnini aks ettirishda ham tubdan farq qiladi. Bu maqolaning maqsadi avvalgi tahlilni chuqurlashtirgan holda, har ikki romanning matnlaridan olingan keng iqtiboslar, qahramonlarning harakatlari va dialoglarini tahlil qilish orqali, ularning inson qismatiga bo‘lgan falsafiy yondashuvdagi ziddiyatlarni ochib berishdan iboratdir.

E‘tiborlisi, qahramonlarning o‘zaro qiyosiy portreti ratsional mantiq va vijdon azobi uyg‘unligi yanada yorqinroq gavdalangan.

“Katta To‘rtlik” romanining bosh qahramoni Erkyul Puaro G‘arb ratsionalizmining yorqin timsoli. Uning butun mavjudligi tartib va intellektual ustunlikka asoslangan. Uning harakatlari mutlaqo hissiyotdan holi, deyarli ilmiy aniqlikka ega. Puaroning o‘ziga xosligi uning kiyinishi, tartibli hayot tarzi va eng muhimi, o‘zining “kichik kulrang hujayralari”ga bo‘lgan cheksiz ishonchida namoyon bo‘ladi. Romanda, Puaro go‘yo detektiv emas, balki “tartibsizlikni yenguvchi kosmik tartib ramzi” sifatida namoyon bo‘ladi.

Puaro o‘zining dushmani Li Chang Yenning o‘limini izohlar ekan, unga bo‘lgan hurmatni ham,

o'zining aqliy ustunligini ham ta'kidlaydi: "My great opponent... A great brain, my friend, a great brain. But I wish I had seen the face of the man who was Number Four..." [4. 278.].

Mazkur parcha tarjimasini: "Mening ulkan raqibim... Buyuk aql sohibi bu, do'stim, buyuk aql. Ammo men to'rtinchi raqamli odamning yuzini ko'rishni xohlardim".

Bu iqtibosda Puaroning yovuzlikka shaxsiy gina emas, balki intellektual raqib sifatida qarashi aks etgan. U uchun bu shaxslarning kimligi emas, balki ularning dahosi va bu dahoning tartibga qarshi qo'yilgani muhimdir. Uning butun harakati dunyoni jinoiy sxemadan xalos etish, ya'ni global mexanizmdagi nosozlikni tuzatishga qaratilgan.

Boshqa tomondan, "Jimjitlik" romanining asosiy qahramoni Tolibjonning portreti butunlay boshqacha. Uning tashqi qiyofasi (sochlari oqarishi, asab kasali) uning ichki ruhiy sinishi va iztirobining bevosita aksidir. Tolibjonning qahramonligi tashqi muammolarni yechishda emas, balki ichki kurash va ma'naviy yukni yengishda namoyon bo'ladi. Uning harakatlari ratsional reja emas, balki vijdon azobidan qochishga bo'lgan instinktiv urinishdir.

Tolibjonning o'z o'g'li Afg'onistonda halok bo'lgani haqidagi ayanchli suhbat bu ruhiy portretning eng og'ir nuqtasi hisoblanadi. Uning o'gay onasiga aytgan mana bu gapida diqqat qarataylik: "Kelingiz juda uzoq yurt tuprog'ida kul bo'lib qolgan. – Bolalaring qani? – dedi kampir yana. – O'g'lim Afg'onda yongan" [1. 7.].

Bu dialog Tolibjonning shaxsiy fojiasi shaxsga sig'inish davri va siyosiy adolatsizlik oqibatidagi fojia zanjirining yakuni ekanligini ko'rsatadi. Uning bu gapni titrab-qaqshab aytishi uning og'riqli xotiralari va jimjitlikda saqlangan alamini anglatadi. Puaro xotirjamlik bilan jinoyatchilar o'limini qayd etsa, Tolibjon o'z fojiasini katta ruhiy qiynoq bilan yashaydi. Puaro qotillikni ochadi, Tolibjon esa uni yashaydi.

Ana endi ikki roman personajlarining muayyan xatti-harakatlariga olib kelgan motivatsion omillar va ular zamiridagi ruhiy-falsafiy jihatlariga to'xtalamiz.

Kristining asarida harakatlarning motivatsiyasi – bu adolatni tiklashning mantiqiy zaruriyatidir. Puaro shaxsiy manfaati emas, balki tartib-taomillarning mutanosibligi va haqiqat ustuvorligi uchun kurashadi. Uning Kapitan Gastingsga qarata aytgan "Hayotimdagi shunday buyuk bir ish poyoniga yetdi. Endi bundan buyon boshqa har qanday ish zerikarli bo'ladi. Yo'q, men nafaqaga chiqaman" ma'nosidagi so'zlari buni tasdiqlaydi: "The great case of my life is over. Anything else will seem tame after this. No, I shall retire" [4. 278.]. Uning nafaqaga chiqishi jismoniy charchoq emas, balki eng buyuk mantiqiy sarguzashtning yakuni va aqlning mutlaq g'alabasini anglatadi. Puaroning motivatsiyasi – intellektual o'z-o'zini anglashdir. Uning mantiqiyliги shunchalik yuqoriki, u o'limini soxtalashtirish kabi keskin harakatlarga ham osonlikcha boradi.

Xulosa. Har ikki romandan kelib chiquvchi hissa shuki, Puaro haqidagi asari g'alaba bilan, yovuzlikning ratsional mag'lubiyati bilan tugaydi. Bu hol o'quvchiga "dunyo muayyan qonuniyatlar asosida tartibga solingan" degan xulosani beradi. Said Ahmadning asari esa qahramonning shaxsiy fojiasi, ammo ma'naviy umid bilan yakunlanadi. Tolibjon fizik jihatdan sinadi (kasallik, yig'lay olmaslik), ammo uning kurashi yangi avlod (Azizbek) tomonidan ma'naviy g'alaba bilan muhrlanadi. Bu Said Ahmadning adabiy falsafasidagi asosiy nuqta: jang tugamas, faqat kurash usuli o'zgaradi va ma'naviy ustunlik har doim kuchdan ustun keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Said. Jimjitlik. – T.: "O'zbekiston", 2008. – B.280.
2. Balart P., Oosterveen M. (2019). Females show more sustained performance during test-taking than males. *Nature communications*, 10 (1), 1-11.
3. Chase Margaret. Agatha Christie and the Legacy of the Big Four: An Analysis of World Domination Plots. – Los Angeles: University Press of California, 2012. – P.40-55.
4. Christie Agatha. The Big Four. – New York, HarperCollins, 2008. – P.224.
5. Holmes Brian D. Espionage and the Detective in Agatha Christie: From The Secret Adversary to The Big Four. – London: Routledge, 2019. – P.88-105.
6. Mcguigan Jim. The Big Four: A Study of the Detective Fiction of Agatha Christie's Poirot. –

New York: Palgrave Macmillan, 2024. – P.150-165.

7. Stepler R. (2017). Female police officers' on-the-job experiences diverge from those of male officers. Pew Research Center. Web.

8. Zeripboyeva Sh. "Jimjitlik" romanida badiiy psixologizm // "Tamaddun nuri", 2025, 6-son (69). – B.313-315.

МОДЕЛИРОВАНИЕ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КРІ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЯЮЩИХ КОМПАНИЙ

Бердибаева Гулиза Бердибай кизи

Ташкентский архитектурно-строительный университет, докторант

bbguliza@gmail.com

Аннотация: Статья посвящена трансформации организационно-экономических механизмов управления жилым фондом через призму интеллектуального анализа данных. Автор обосновывает переход от статических отчетов к динамическому моделированию КРІ как фундаментальному инструменту принятия решений. В работе раскрывается процесс конвертации «сырых» данных в управленческий интеллект, позволяющий прогнозировать износ инфраструктуры и финансовые риски. Особое внимание уделено «эффекту домино», где улучшение технологических показателей напрямую коррелирует с ростом собираемости платежей и лояльности жителей. На основе анализа международного опыта и внедрения платформы «Mening uyim», предлагаются алгоритмы предиктивного обслуживания, способные продлить жизненный цикл зданий. Исследование доказывает, что внедрение Data-Driven менеджмента минимизирует операционные издержки и повышает инвестиционную привлекательность сферы ЖКХ в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: Моделирование КРІ, интеллектуальный анализ, управление недвижимостью, ЖКХ, предиктивное обслуживание, Data-Driven Management, цифровизация, жилой фонд, собираемость платежей, эффективность управления, большие данные, экономический механизм, жизненный цикл здания, ИИ в ЖКХ.

BOSHQARUV KOMPANIYALARINING ISHLASH KO'RSATKICHLARI UCHUN KPILARNI MODELLASHTIRISH VA AQLLI TAHLIL QILISH

Berdibayeva Guliza Berdibay qizi

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti doktoranti

bbguliza@gmail.com

Annotatsiya: Maqola turar joy fondini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ma'lumotlarning intellektual tahlili prizmasi orqali transformatsiya qilishga bag'ishlangan. Muallif qaror qabul qilishning fundamental vositasi sifatida statik hisobotlardan KPI ko'rsatkichlarini dinamik modellashtirishga o'tish zaruriyatini asoslab beradi. Ishda «xom» ma'lumotlarni boshqaruv intellektiga konvertatsiya qilish jarayoni yoritilgan bo'lib, bu infratuzilma eskirishi va moliyaviy xatarlarni prognozlash imkonini beradi. Texnologik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi to'lovlar yig'iluvchanligi va aholi sodiqligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan «domino effekti»ga alohida e'tibor qaratilgan. Xalqaro tajriba va «Mening uyim» platformasi tahlili asosida binolarning hayotiylik tsiklini uzaytirishga qodir bo'lgan prediktiv xizmat ko'rsatish algoritmlari taklif etilgan. Tadqiqot Data-Driven menejmentining joriy etilishi raqamli iqtisodiyot sharoitida operatsion xarajatlarni minimallashtirishini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: KPI modellashtirish, intellektual tahlil, ko'chmas mulk boshqaruvi, UJKX, prediktiv xizmat ko'rsatish, Data-Driven Management, raqamlashtirish, turar joy fondi, to'lovlar yig'iluvchanligi, boshqaruv samaradorligi, katta ma'lumotlar, iqtisodiy mexanizm, bino hayotiylik tsikli, UJKXda SI.